

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA TARBIYA FANINI  
O'QITISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING  
SAMARASI

*Ilmiy rahbar: p.f.d., professor O.A.Qo'ysinov*

*Musayeva Lobar Sobirjon qizi*

*Xalqaro Nordik universiteti magistri*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning samarasi mavzusida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi yoritib berilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining vazifalari tavsiflangan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish to'rtta asosiy bosqichga (tashkil etish – amalga oshirish – qayd qilish – sharhlash) ajratilgan hamda ushbu bosqichlarning xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** metodologiya, innovatsion yondashuv, ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari, texnologiya integratsiyasi, tarbiya ,ijtimoiy hayot,motivatsiya, o'yin elementlari, texnikasi, hamkorlik, uzlusizlik

**Abstract.** *In this article, the method of organizing experimental work on the topic of using innovative educational technologies in the training of future primary education teachers is explained. The tasks of pedagogical experimental work are described. The organization and implementation of pedagogical experimental work is divided into four main stages (organization - implementation - recording - interpretation) and the features of these stages are discussed in detail.*

**Key words:** methodology, innovative approach, educational technologies, primary education teachers, technology integration, Gamification, social life,motivation, game elements, techniques, cooperation, continuity

## KIRISH

Ta'lim - tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a`zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

## ASOSIY QISM

[147]

Boshlang'ich ta'lif jarayonida tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning samarasi yuzasidan muhim metodlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqqan holda, Piskent tumani 4-umumta'lif maktabida Boshlang'ich ta'lif jarayonida tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning samarasi mavzusida bir qancha metodlar orqali pedagogik tajriba-sinov ishlari olib bordik.

Pedagogik tajriba-sinov ishning g'oyasi malaka oshirish jarayonida tadqiqot farazini amalda sinab ko'rish, taklif etilgan pedagogik metodlar vositasida tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanish orqali bilimlarini rivojlantirish usullari samaradorligini sinab ko'rish edi.

Shu munosabat bilan tajriba-sinov ishining maqsadi, faraz va vazifalaridan kelib chiqadigan vazifalarni ifodalash, tajriba-sinov ishining bosqichlarini tavsiflash, uning metodologiyasini tavsiflash, ishning amaliy qismining barcha natijalarini tahlil qilish, ularni nazariy jihatdan taqqoslash va yakuniy xulosalar chiqarish zarur deb hisoblaymiz.

Pedagogik tajriba-sinov ishining quyidagi vazifalari ta'riflandi:

- tadqiqot farazini sinab ko'rish uchun tajriba ishlarni tashkil etish va amalga oshirish;
- uning samaradorligini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan modelni sinab ko'rish va amalga oshirish;
- shakllantiruvchi tajriba-sinov materiallari asosida tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajasini aniqlash.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va amalga oshirishda biz to'rtta asosiy bosqichni (tashkil etish – amalga oshirish – qayd qilish – sharhlash) ajratamiz.

Ushbu bosqichlarning xususiyatlariga bat afsil to'xtalib o'tamiz.

Birinchi bosqich – tashkil etish – farazni ishlab chiqish, samaradorligini eksperimental ravishda isbotlash kerak bo'lgan bir qator ahamiyatli holatlarni, muhim jihatlarni qamrab oladi. Hozirgi vaqtida tadqiqot olib borishda dastlab ishchi faraz ishlab chiqiladi, bu tadqiqot jarayonining samarali rivojlanishi uchun zaruriy shartdir.

Kelgusida farazning mazmuni ko'p narsani: tashkil etishni ham, ilmiy tadqiqotlar usullarini ham, adabiyotdagi muammoning holatiga nuqtai nazarni qaratishni ham, o'tmish tajribasiga murojaatni ham, uning tarixiy anglanishini ham va ko'plab boshqa narsalarni ham oldindan belgilab qo'yadi.

Pedagogika nazariyasi va ta'lif amaliyotida o'rganilayotgan muammoni tahlil qilish asosida biz quyidagi farazni ifodalashga to'xtadik: agar «tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalar » tushunchasining mohiyat tavsifi aniqlanganda; o'quvchilarda tarbiya fanidan interfaol metod haqida tushuncha

belgilangandan; o'tkazilgan tajribadagi metod o'zining aniq natijasini berganda; ushbu faoliyat ishlashining mazmuni va texnologiyalari ishlab chiqilgandagina ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar yaratiladi.

Ushbu pedagogik sharoitlar quyidagilardan iborat: ushbu metodlar o'quvchilarining tarbiya faniga qarashlarini o'zgartirishga qaratilgan; meto'dlar to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarining dars jarayonida qo'shimcha ishlarsiz bilimlarini takommillashtirishga qaratilgan; boshlang'ich talim o'quvchilarining o'quv tarkibiga “tarbiya fani” yuzasidan metodlar kiritish; o'quvchilar bilan ishlashning jamoaviy, guruhli va individual shakllarining maqbul kombinatsiyasi; ta'limning barcha bosqichlari o'tishining uzlusizligi, izchilligi va ketma-ketligi; innovatsion metodlardan foydalangan holda o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari; psixologik va pedagogik diagnostika jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik sharoitlar yaratiladi.

Farazni tasdiqlash uchun uni qayta-qayta sinab ko'rish va barqaror odatiy natijalarga erishish kerak. Yetarli miqdordagi dalillar to'planishi va keyingi tahlillar natijasida ishchi faraz eksperimental tasdiqlangandan so'ng nazariyaga aylanishi mumkin bo'lgan ilmiy farazga aylanadi. Ushbu bosqichning navbatdagi muhim jarayoni tajriba-sinov ishining maqsadi va vazifalarini aniqlashdir.

Psixologik-pedagogik nazariya va me'yoriy hujjatlar tahlili asosida amaliyot jarayonida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining tarbiya fanida interfaol metodlardan foydalangan holda dars o'tishdan foydalanish bo'yicha metodikalarni ishkab chiqdik nazariy jihatdan asosladi. Modelni eksperimental tekshirish modelni amalga oshirish jarayonida maqsadlar, vazifalar va qarorlarni qo'yishni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, tajriba-sinov ishining maqsadi aniqlandi: farazda ilgari surilgan pedagogik sharoitlarni tekshirish va asoslash. Kutilayotgan natija – boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitishda tarbiya fanidan interfaol metodlardan foydalanish.

Ushbu maqsadga muvofiq biz tajriba-sinov ishining vazifalarini aniqladik.

Aniqlovchi tajriba: o'quvchilarни tarbiya faniga bo'lgan qiziqish darajasini ishlab chiqish; o'quvchilarни metodlar orqali bilimini rivojlanishining hozirgi shakllangan darajasini aniqlash.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov: ishlab chiqilgan modelni uning samaradorligini aniqlash uchun sinab ko'rish.

Nazorat tajriba-sinovi: shakllantiruvchi tajriba materiallari asosida o'quvchilarни tarbiya fani haqidagi bilimlarini rivojlantirish darajasini aniqlash.

Ikkinchi bosqich – amalga oshirish – dastlab farazda aytilgan va tajriba-sinovning tayyorlangan materiallariga ko’chirilgan g’oyalarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu yerda asosiysi – pedagogik tajriba-sinovning sofligini ta’minalash, olingan ma’lumotlarning yetarlicha ishonchli bo’lishini ta’minalash.

Ushbu bosqichda malaka oshirish sharoitida talabalarni metodlar orqali bilimini takomillashtirish modelini realizatsiya qilish amalga oshiriladi. Modelni amaliy realizatsiya qilish texnologiyasi quyida tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich – aniqlash – bu natijalarning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash, ularga kirish imkoniyatiga va ishonchlilikka ega bo’lgan qiymatlarni olish va belgilangan qonuniyatning mohiyatini ochiq namoyon etuvchi ma’lumotlarni olish uchun tegishli ishlov berishga qaratilgan barcha ishlar majmuini ifodalaydi.

To’rtinchi bosqich – talqin qilish – to’plangan faktlar turli asoslarga ko’ra tasniflanadi, statistik qonuniyatlar belgilanadi, rivojlanish tendentsiyalari, barqarorlik zonalari, eksperimental tadqiqot ob’ektida ma’lum fazilatlar shakllanishidagi sakrash vaqtлari aniqlanadi. Induktiv va deduktiv usullarni qo’llash natijasida haqiqiy material umumlashtiriladi, uning ilmiy ahamiyati aniqlanadi. Eksperimental ma’lumotlarning daliliy talqini talabalarni ilmiy bilimini shakllantirish va innovatsion ta’limni rivojlanirish bo’yicha metodik tavsiyalarni taklif qilish imkonini beradi, bu malaka oshirish amaliyotida ham, shuningdek, oliy o’quv yurtlari faoliyatida ham qo’llanilishi mumkin.

Ma’lumki, maqsadlarga ko’ra, aniqlash, shakllantirish va nazorat qilish tajribalari farqlanadi. Aniqlash tajribasining maqsadi – o’rganilayotgan hodisaning hozirgi darajasini o’lchash. Bu yerda shakllantiruvchi eksperimentni tushunish va tashkil etish uchun dastlabki material olinadi.

Shakllantiruvchi (o’zgartiruvchi, talaba) eksperiment muayyan faoliyatning shakllanish darajasini, tarbiyachi-pedagoglarning muayyan ko’nikmalarini rivojlanirish darajasini shunchaki aytib berishga emas, balki ularni faol ravishda shakllantirishga yoki tarbiyalashga qaratilgan. Bu yerda maxsus eksperimental vaziyatni yaratish kerak .

Nazorat tajriba-sinovi (nazorat qiluvchi) – uning yordami bilan shakllantirish (o’rgatish) eksperimentidan ma’lum vaqt o’tgandan so’ng, Talabalarning bilim va ko’nikmalar darjasini, har qanday shaxs fazilatining rivojlanishi shakllantirilgan eksperiment materiallari asosida aniqlanadi.

Bizning ishimizning asosiy yo’nalishlari quyidagilardan iborat edi: kasbiy o’zini o’zi mustaqil takomillashtirishga ijobiy munosabatni shakllantirish; ushbu yo’nalishda ishlash uchun bilim va ko’nikmalarni shakllantirish;

o'quvchilarning tarbiya fani haqidagi tasavvurlarini shakllantrish ehtiyojlarini aktuallashtirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishga yordm berish.

Zamonaviy sharoitda ta'lif mazmunini bashorat qilishning roli sezilarli darajada oshib bormoqda, buning natijasida o'quv rejalarini va dasturlarini qurish, ularni tezkor o'zgartirish uchun zarur bo'lgan ma'lum bilim sohalarini, mehnatning tabiatini va ob'ektlarini rivojlantirish, ehtimoliy istiqbollari to'g'risida ilg'or ma'lumotlarni olish kerak.

Ta'lif mazmunining rivojlanishini bashorat qilib, o'quv dasturini iloji boricha zamonaviy sharoit talablariga moslashtirishga intilib, biz o'z ishimizda, har birining individual xususiyatlari, motivlari va qadriyat yo'nalishlari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lif mazmunini talabalarni shaxsining qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirish zarurati hamda moslashuvidan kelib chiqdik. Ushbu vazifa ta'lifning haqiqiy mazmuni doirasidan tashqariga chiqadi va uni muvaffaqiyatli hal qilish faqat o'quv jarayonining o'zida, shaxslararo munosabatlar tizimida imkonlidir.

Nazariy tayyorgarlik bosqichida talabalar o'rtasida innovatsion ta'limga oid bilimlar tizimini rivojlantirish, talabalarni kasbiy madaniyatini oshirish maqsadida tarbiya fanida interfaol metodlarni ishlab chiqdik va tatbiq etdik. Ushbu metodikada bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsan va professional ravishda yo'nalish olishga, tarbiyaviy ong haqida o'z nuqtai nazarini shakllantirishga, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda tarbiya fanining ahamiyatini bolalarga o'rgatish orqali ko'nikmalarini o'zlashtirishga va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishda ko'maklashishga yo'naltirilgan.

Ushbu metodikaning amaliy ahamiyati shundan iboratki , metodikani o'zlashtirish natijasida bolalar nafaqat tarbiya fanining nazariyasi va uslublari bo'yicha bilim zaxiralariga ega bo'lishlari, balki bu bilimlarni tashqi muhitda ham ya'ni kerakli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishda qo'llashlari mumkin bo'ladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishdan maqsad – o'quvchilarning tarbiya fanini o'zlashtirish darajasini oshganlik darajasini aniqlash va ijtimoiy hayotda o'z o'rniiga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalishdan iborat.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida 2024-yil oktyabr va noyabr oylari davomida Toshkent viloyati Piskent tumani 4-umumta'lif maktabi 3-”A” va 3-”B” sinflarida o'tkazildi.

Ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar va mezonlarga muvofiq biz o'quvchilarning innovatsion ta'lif texnologiyalariga oid qilingan metodimiz orqali shakllangan bilimlarini uchta darajasini (past, o'rta, yuqori) aniqladik.

O'quvchilarning bilim darajasi va uning tarkibiy qismlari bilimlarni diagnostikasi yordamida aniqlandi.

Aniqlash tajribasi o'quvchilarning tarbiya fanidagi bilimini shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida o'tkazildi.

So'rovnomalari, suhbatlar, ekspertli baholash usuli yordamida motivatsion-qadriyatlar hamda olingan bilimlarni tadbiq eta olish shakllanganlik holati aniqlandi.

Ishlab chiqilgan baholash mezonlariga muvofiq, o'rganilayotgan sinfdagi har bir o'quvchining shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Aniqlash tajribasining olingan natijalari asosida aniqlovchi tajriba bilan bir xil guruhlarda o'tkazilgan shakllantiruvchi tajriba tashkil etildi.

Boshlang'ich ta'lif jarayonida tarbiya fanini o'qitishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning samarasi ishlab chiqilgan metod asosida mакtabda pedagogik shartlar kompleksini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. O'quvchilar faolligini oshirish: Innovatsion ta'lif texnologiyalarining integratsiyasi o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishga olib keladi. Texnologiyadan o'quv quroli sifatida foydalanilganda o'quvchilarda yuqori darajadagi qiziqish, motivatsiya va faoliik ko'rsatadilar. Interfaol simulyatsiyalar, multimedya resurslari va o'yinlashtirilgan o'quv tajribalari, ayniqsa, o'quvchilar o'rtasida faoliikni oshirishga yordam beradi.

2. Ta'lif natijalarining yaxshilanishi: Darsda ta'lif texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar mavzuni yaxshi tushunish va eslab qolish, shuningdek, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishni ko'rsatadi. Texnologiyalar qo'llab-quvvatlangan baholashlar o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlarini samarali hal qilish imkonini beruvchi aniqroq va o'z vaqtida fikr-mulohazalarini taqdim etadi.

3. Kengaytirilgan ijodkorlik va hamkorlik: Raqamli hikoyalar, kodlash va virtual haqiqat kabi texnologiyalarning integratsiyasi o'quvchilar o'rtasida ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantiradi. O'quvchilar o'z g'oyalari va bilimlarini innovatsion usullarda ifodalash, multimedia loyihalarini yaratish, interaktiv o'yinlar loyihalash va virtual loyihalarda hamkorlik qilish imkoniyatiga ega boladilar. Bu yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatları va samarali jamoaviy ishslashga yordam beradi.

Ta'lifning dastlabki uch kunida o'tkaziladigan tayyorgarlik bosqichi quyidagi kichik bosqichlardan iborat edi: o'quvchilarning maqsadlari, ehtiyojlari, muammolari va qiyinchiliklarini aniqlash (buning uchun maxsus dars tashkil qilindi, bu o'quvchilarni ta'lif dasturiga kiritishga imkon berdi)

va ta’lim oluvchilarni aniqlangan qiyinchiliklarning natijalari asosida turli guruhlarga differentsiyallash imkonini berdi.

Natijada ta’lim guruhlarining tarkibi (nazorat va tajribaviy) kasbiy kompetentlikning rivojlanish darajasiga qarab shakllantirildi, bunda nazorat 3-”B”(30 nafar) va tajribaviy 3-”A”(25 nafar) o’quvchilar ishtirok etdilar.

Ba’zi o’quvchilarda bizning metodimiz amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishganligi sababli, biz ushbu qiyinchiliklar nimaga bog’liqligini aniqlashga qaror qildik, bizning so’rovimiz quydagilarni ko’rsatdi: 1) innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali ishlab chiqilgan metodlar avvalgi tajribaning mavjudligi to’g’risida; 2) o’z bilimlari va ko’nikmalarini hamda ushbu sohadagi qobiliyatlarining mavjudligini o’zlari mustaqil past baholashlaridan kelib chiqqan xavotirdan; 3) innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali ishlab chiqilgan metodlarda ishonch hissi yo’qligi.

Xulosa: Yakuniy test natijalarini taqqoslash, tarbiya fanini o’qitishda interfaol texnologiya vositalaridan foydalangan holda turli xil ijodiy vazifalarni bajarish muvaffaqiyatlari, tezligi va sifati, interfaol vositalari bilan ishslashda muvaffaqiyat va faoliyatga qiziqish ta’siri quydagi shaxsiy omillarini aniqlashga imkon berdi.

Shakllantiruvchi tajriba jarayonida biz sanab o’tilgan pedagogik shartlarni tajribaviy tekshiruvdan o’tkazdik va ulardan eng samaralisini aniqladik. Shakllantiruvchi tajriba davomida uchta oraliq kesim amalga oshirildi. Ikki oylik ta’limdan so’ng birinchi kesim natijalari, umuman, tajriba guruhlarida ko’rsatkichlarning o’sish tendentsiyasini ko’rsatdi.

Tajribaviy ishlarni o’tkazish o’quvchilarning o’quv faoliyatida gadgetlar internet aloqalarisiz innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini amalga oshirish jarayonini darajada modernizatsiya qilish, o’quvchilarlarning innovatsion faoliyatga bo’lgan rivojlanishining umumiy darajasini oshirish va ko’zga ko’rinadigan natjalarga erishish imkonini berdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1.O.Kuysinov, Sh.Abduraimov, D.Mamatov, L.Zaripov, G.Abduraimova  
“Stages of inter-Industry Integration in Ensuring the Quality of Training and  
Employment of Personnel” «INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL  
EDUCATION» Scopus Journal.  
<http://internationaljournalofspecialeducation.com> ISSN No:0827-3383  
VOLUME 3, №2. - 2022 338-348 p.

2.Lawless, K. A., & Pellegrino, J. W. (2007). Professional development in integrating technology into teaching and learning: Knowns, unknowns, and ways to pursue better questions and answers. *Review of educational research*, 77(4), 575-614

3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers college record*, 108(6), 1017-1054.

4.Tondeur, J., Van Braak, J., Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. (2017). Understanding the relationship between teachers' pedagogical beliefs and technology use in education: a systematic review of qualitative evidence. *Educational Technology Research and Development*, 65(3), 555-575.

5.Толипов Ў.К. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва қасбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Т.: 2004. –314 б.

6.Толипов Ў.К., Шарипов Ш.С.. “Ўқувчи шахси ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари”. ЎзРФА “Фан”. 2012 й. 92 бет